



DIZAYNER TALABALARNI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOG KASBIY KOMPETENSIYASINING ROLI

UMAROVA GULZODA ERNAZAROVNA,

MRDI instituti

Libos dizayni kafedrası

katta o'qituvchisi

gulzodaodiljonrayhona@gmail.com

<https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp163-164>

Annotatsiya: Maqolada talabalarning dizaynerlik kasbiy tayyorgarligini shakllantirishda pedagogik kompetentsiyaning roli va innovatsion ta'lim texnologiyalarining mohiyatiga muallif tomonidan ta'rifi berilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion ta'lim texnologiyalari, pedagogik texnologiya, dizayn, ta'lim.

Dizayner talabalarni shakllantirishda kasbiy kompetentsiyaning roli juda ham muhim hisoblanadi. Har qanday pedagogik jarayonning shakllantirish darsning tahlil qilinishi bilan yakunlanishi kerak. Kompetentsiya yondashuvi. Qobiliyatni rivojlantirish mumkin, qachonki, pedagog kasbiy faoliyati jarayonida aniq tashhis qo'ya olsa, yani "Biladi", "tushunadi", "ma'lumotga ega", "tayyor". O'z navbatida, biz dizaynerning professional malakasini rivojlanishida to'rtta asosiy komponentni birlashtirishi kerak:

- 1) motivatsion-qiymat;
- 2) kognitiv;
- 3) operativ faoliyat;
- 4) shaxsiy ijodiy faoliyat.

Motivatsion-qiymat komponenti - motivatsiyaning dizayn faoliyatiga yo'naltirilganligi, talabaning ijodga moyilligi;

Kognitiv komponent ma'lum darajada rivojlangan ta'lim faoliyatida, shuningdek, pedagog orqali olingan bilim darajasi orqali, o'z-o'zini tarbiyalash va intellektual o'zini o'zi rivojlantirishdir. Kognitiv komponent muvaffaqiyatli yechimning ko'nikmalari va qobiliyatlarini aks ettiradi va mantiq bosqichlarga mos keladigan kasbiy vazifalar, dizayn funktsiyalarini amalga oshirish ketma-ketligini belgilaydi.

Shaxsiy-ijodiy komponentda talaba ijodiy timsolni belgilab oladi. Muallifning g'oyalari va fikrlari harakati zamonga mos bo'lishi lozim. Zamonaviy sharoitda dizaynerlik kasbini egallash davomida dizayn ta'limi doirasida va turli bosqichlar bilan makammallashtirish mumkin.

Amaliyot darslari davomida o'qituvchi va talabalar tomonidan turli xil og'zaki (ma'ruza, tushuntirish, suhbat) fan (didaktik va uslubiy adabiyotlar, vizualizatsiya), (amaliy mashqlar namoyishi, multimedia taqdimotlari); intellektual (mantiqiy,

konstruktiv) bosqichlar qo'llanilishi ijobiy samara beradi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, bilimni mukammallashtirish o'z-o'zini anglash san'ati bilan chambarchas bog'liq. Talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish maqsadida shakllantiruvchi, tajribada isbotlangan ko'nikmalar va rejalashtirilgan tizim ishlatilishi, amaliy jarayonning elementlari harakati mukammalligiga bog'liqligi o'rganildi. Shu maqsadda tegishli algoritm ishlab chiqilgan:

1) bilimlarni standart vaziyatlarda qo'llash; natijada talabaning harakatlar ketma-ketligini tez va oson egallashi;

2) o'zgargan vaziyatda bilimlarni qo'llash bo'yicha mashqlar; natija - o'rganilgan harakatni o'zgartirilgan vaziyatga qo'llash;

3) olingan yangi bilimlarni ijodiy qo'llash, qobiliyat va hissiyotlarning kuchayishi; bunda xayol katta rol o'ynadi.

Ko'rinib turibdiki, birinchi bosqichda talabalarni bajarilishi kerak vazifalar bilan oldindan tanishtirish, zarur motivatsiyani yaratadi. Shu bilan birga, talabaga hayotiy misollar bilan yanada qiziqarli deb hisoblangan jarayonni misol keltirib, ichki motivatsiyani shakllantirish lozim. Ikkinchi bosqichda orientatsiya bazasining sxemasi ketma-ketligining taklif qilinishi, harakat bajarilishiga poydevordir.

Asosiy adabiyotlar:

1. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. – T.: "Sano standart" nashriyoti, 2015 y.

2. Yo'ldoshev J.G'., Usmonov S. Ilg'or pedagogik texnologiyalar. – T.: O'qituvchi, 2004.

3. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi / Met.qo'll. – T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.

4. Tolipov O'., Usmonboeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari – T.: 2006.

5. Yunusxodjayeva S.A. (2019). Yosh rassomni o'qitishda samarali usullardan foydalanish. ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ, 1(4).

6. Yunusxodjayeva S.A. (2020). KASB TA'LIMI YO'NALISHIDAGI TALABALARNI O'QITISHDA KASBIY BILIMNI CHUQUR O'ZLASHTIRGAN MUTAXASSISLARBIYALASH VA MILLIY LIBOSLARIMIZGA OID BILIMLARNI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI. ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ, 2(4).

7. Эрнazarовна, У. Г. (2022). ТХЕ ФОРМАТИОН ОФ ТХЕ ДЕСИГН ТЕРМ АНД ХИСТОРИ ОФ ДЕВЕЛОПМЕНТ. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАХЛИЛИ ОН-ЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 96-102.